

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2025

oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 221 sahifa.  
2025-yil, 12-oktyabr,

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI .....	12
<b>Quliyev Begimqul Melikovich</b>	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI .....	18
<b>Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna</b>	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI .....	25
<b>Davletova Nilufar Tulanovna</b>	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	30
<b>Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li</b>	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	37
<b>Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna</b>	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI .....	46
<b>Sultanov Dilshod Normamatovich</b>	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	50
<b>Akhmadaliyeva Nikholakhon</b>	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI .....	62
<b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI .....	68
<b>Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li</b>	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI .....	74
<b>Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich</b>	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI .....	80
<b>O. Nurmuradov</b>	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	85
<b>Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li</b>	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	90
<b>Xuramov Zafar Rajabaliyevich</b>	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI .....	95
<b>Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich</b>	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI .....	99
<b>Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li</b>	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	103
<b>Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li</b>	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI .....	109
<b>Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich</b>	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
<b>Ягудин Дмитрий Рустамович</b>	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
<b>Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich</b>	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH .....	129
<b>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</b>	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI .....	134
<b>Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li</b>	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
<b>Мансурова Сайёра Бахтияровна</b>	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	148
<b>Xolikova Oydin Olimjonovna</b>	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI .....	153
<b>Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich</b>	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
<b>Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi</b>	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI .....	166
<b>Suyunov Asror Baxtiyorovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI.....	171
<b>Z.Teshayev</b>	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	176
<b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH .....	183
<b>Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li</b>	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА .....	186
<b>Исмагулова Гульмира Нуралиевна</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
<b>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI.....	198
<b>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA.....	203
<b>Abduraxmonov Akmal Nurmatamat o'g'li</b>	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI .....	207
<b>Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna</b>	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI .....	212
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b>	



УДК 336.7

# TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI

**Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi**

(Orcid ID:0000-0001-9366-5519)

TTYSI "Buxgalteriya hisobi va marketing" kafedrasini mudiri,  
iqtisodiyot fanlari doktori DSc, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada to'qimachilik sohasini barqaror rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqilgan. Unda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** to'qimachilik sanoati, barqaror rivojlanish, innovatsiya.

**Abstract:** This article presents a conceptual model for the sustainable development of the textile industry. It explores issues related to improving production efficiency, optimizing resource utilization, and ensuring environmental sustainability. The study also analyzes the key directions for industry development through the implementation of innovative technologies and the production of competitive goods.

**Keywords:** textile industry, sustainable development, innovation.

**Аннотация:** В статье разработана концептуальная модель устойчивого развития текстильной отрасли. Рассмотрены вопросы повышения эффективности производства, рационального использования ресурсов и обеспечения экологической устойчивости. Проанализированы приоритетные направления развития отрасли за счёт внедрения инновационных технологий и выпуска конкурентоспособной продукции.

**Ключевые слова:** текстильная промышленность, устойчивое развитие, инновации.

## KIRISH

O'zbekistonning to'qimachilik sanoati qadimdan rivojlangan tarmoq sifatida jahon mamlakatlari orasida bu tarmoqning rivojlanishi uchun o'ziga xos qulay resurs imkoniyatlari va bozor muhiti shakllanganligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqaruv vazifalarini hal etish uchun iqtisodiy jihatdan rivojlantirish masalasiga yangicha zamonaviy yondashuvlardan foydalanish talabi qo'yilmoqda. Bunday yondashuv sifatida iqtisodiyotda keng ko'lamli rejalashtirish va rivojlantirish konsepsiyasi ilgari suriladi. Mamlakat sanoatining samarali rivojlanishi ko'p jihatdan to'qimachilik korxonalarini faoliyati samaradorligiga bog'liq. To'qimachilik tarmog'ini keng ko'lamli rejalashtirish konsepsiyasida asosiy e'tibor funksional, ijtimoiy-iqtisodiy, resurslar tejamkorligi, resurslardan samarali foydalanish hamda chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq yo'nalishlarini shakllantirishga qaratiladi. So'ngi 3 yil ichida tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar 2 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilingan va 260 dan ortiq yirik to'qimachilik korxonalarini ishga tushirilgan[1]. To'qimachilik sanoatining respublika YalMdagi ulushi 4,8 foizni tashkil etib, sanoat mahsulotlarining 25 foizi, ishlab chiqarish asosiy fondlarini 13 foizi ushbu tarmoqqa to'g'ri keladi va eng asosiysi sanoatda band xodimlarning 32 foizi aynan shu tarmoqda faoliyat yuritmoqda[2].

Mamlakatimizda bugungi kunda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida juda ko'plab iqtisodiy islohotlar amalga oshirilyapti. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning 3-bandiga ko'ra, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini



ta'minlashda muhim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olingan bo'lib, ushbu vazifalar sohani istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi[3]. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda sanoat tarmog'i xususan, to'qimachilik tarmog'i faoliyatini baholashni takomillashtirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi Investitsion salohiyatini aniqlashda olimlar tomonidan turli hil yondashuvlar mavjud bo'lib, N. D. Guskovning fikriga ko'ra "Investitsiya salohiyati makroiqtisodiy xususiyatlarni, hududning ishlab chiqarish omillari bilan to'yinganligini, aholining iste'mol talabini va boshqa parametrlarni hisobga oladi"[4]. L. S. Valinurova, O. B. Kazakovlarning fikriga ko'ra, Investitsiya salohiyatini quyidagicha aniqlash taklif etiladi. "...moddiy-texnik, moliyaviy va nomoddiy aktivlarni o'z ichiga olgan investitsiya resurslari to'plami (sanoat ob'ektlariga egalik qilish, foydali qazilmalarni qazib olish, ijtimoiy-iqtisodiy, bozor munosabatlari sohasida ma'lumot to'plash, to'plangan tajriba va boshqalar)" [5]. V. Y. Katasonov fikriga ko'ra, Har qanday darajadagi xo'jalik yurituvchi sub'ektning investitsiya salohiyatini quyidagicha aniqlash taklif etiladi... ushbu sub'ektning oldingi iqtisodiy faoliyati natijasida to'plangan, sub'ektning joriy iqtisodiy faoliyatini buzmasdan investitsiya faoliyatini (kapital qo'yilmalar shaklida) ta'minlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha o'z resurslarining (moliyaviy, moddiy, ilmiy-texnikaviy, kadrlar) maksimal yig'indisi». [6] F.S. Tumusovning fikriga ko'ra, Investitsiya salohiyatini quyidagicha belgilaydi. "...to'plangan kapitalning investitsiya bozorida potentsial investitsiya talabi shaklida taqdim etiladigan, kapitalni ko'paytirishning moddiy, moliyaviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan real investitsiya talabiga aylanishi mumkin bo'lgan qismini tashkil etadigan potentsial investitsiya resurslari to'plamidir"[7]. O'zbek iqtisodchi olimlari xususan, A. Vahabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminovlar investitsiyaning mazmun-mohiyati bo'yicha quyidagi fikrlarni ilgari

suradi: "Investitsiyalar – foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir"[8] degan ta'riflarni berganlar. To'qimachilik tarmog'ini rivojlantirishda investitsiya imkoniyatlari va undan foydalanishni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi, bunda uning asosiy elementlarini olimlar fikrlariga tayangan holda maqolaning asosiy qismida ko'rib chiqamiz.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

To'qimachilik tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirishda investitsion imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiya, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik sanoatidagi tub iqtisodiy islohotlar uni rivojlantirishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shunga muvofiq to'qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yangi qarashlar tizimini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Bu sanoat ishlab chiqarish tizimining barcha darajalaridagi boshqaruv o'rtasida, shu jumladan ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash, yetarli miqdordagi resurslarning tarkibi mavjudligi, mahsulot sifati, tikuvchilik trikotaj buyumlari, samarali rejali ta'mirlashni, to'qimachilik sanoatida innovatsion mahsulotlar, marketing va boshqalarni ta'minlash bo'yicha samarali aloqa hamda hamkorlik qilish maqsadining yo'qligi to'qimachilik sanoatidagi mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining eng muhim muammosi ekanligi bilan izohlanadi.


To'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishda strategiyasining samaradorligini oshirish konsepsiyasi o'zida konsepsiyaning maqsad va vazifalarini; amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini; konsepsiyani amalga oshirish chora-tadbirlarini; strategiyani amalga oshirish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berishni; konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalarni mujassam yetadi. Bu to'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishga maqsadli yondashuvlarni joriy yetish va butun tashkiliy-iqtisodiy tizimni uzviy qamrab oladigan hamda uning muhim xususiyatlarini nazariy va uslubiy jihatdan asoslab beradigan konseptual modelni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bugungi kunda sanoat mahsulotlari bozorida barcha ishtirokchilarning o'zaro mutanosib faoliyati konsepsiyasi asosida to'qimachilik sanoatini davlat tomonidan tartibga solishning yangi strategiyasi va modelini ishlab chiqish muammosi dolzarb hisoblanadi.

Sifatli boshqaruvga yangicha qarashlar tizimi ta'sir yetuvchi bozor omillarini kuchaytirishni nazarda tutib, bu yesa nafaqat davlat tomonidan tartibga solish, balki davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida hamda bozor munosabatlarining subyektlari sifatida faol hamkorlikda ishlash konsepsiyasiga asoslangan yangi boshqaruv strategiyasi va modelini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Taklif yetilayotgan konseptual modelning maqsadi – to'qimachilik sanoati uning infratuzilmaviy rivojlanish turining mamlakat sanoat taraqqiyoti darajasiga mos keladigan, mamlakatdagi iqtisodiy o'sishga va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni oshirishga yeng yuqori darajada ko'maklashadigan mutanosib rivojlantirishga yerishishdan

iborat. Sifatli boshqaruv modeli — bu muayyan faoliyat sharoitlariga moslashtirilgan boshqaruv tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha nazariy, uslubiy va amaliy qoidalar hamda xulosalar to'plamidir.

To'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishda konseptual modelning maqsadi bozor o'zgarishlariga moslanuvchanlikni innovatsion rivojlanish orqali natijadorlikni ta'minlashda iqtisodiy tizimidagi holatni baholash hamda baholash natijalariga tayangan holda mavjud kamchiliklarni bartaraf yetish chora-tadbirlarini shakllantirish sanaladi va quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:



1-rasm. To'qimachilik sanoatini samarali rivojlantirishning konseptual modelini amalga oshirish jarayoni rejalashtirish va budjetlashtirish tizimini takomillashtirish;


samarali boshqaruv va moliyaviy oqimlarni optimallashtirish;  
investitsion loyihalash va loyihalarni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy yetish;  
buxgalteriya, soliq va statistika hisobini avtomatlashtirish;  
zamonaviy ichki audit usullarini qo'llash.

Rejalashtirish tizimi takomillashib borishi bilan barcha turdagi mavjud resurslarni, ularni sotib olish xarajatlarini, taqsimlash va oqilona ishlatish kabi omillar hisobga olinishi kerak. Buning uchun har xil boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga ko'maklashadigan iqtisodiy-matematik usullar va yelektron hisoblash mashinalaridan foydalanish tavsiya yetiladi. Statistika hisobini avtomatlashtirish boshqaruv qarorlarini tayyorlash uchun ishlab chiqarish faoliyati natijalarini yanada samarali aniqlash, umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi.

Budjetlashtirish tizimini takomillashtirish, buxgalteriya va soliq hisobini avtomatlashtirish, ichki auditning zamonaviy usullarini qo'llash mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishning yanada samarali nazorat qilinishini ta'minlab, moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga va korxonaning moliyaviy oqimlarini optimallashtirishga yordam beradi.



To'qimachilik korxonalarida resurslardan oqilona foydalanish va yekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy yetish asosiy vazifalar hisoblanadi. To'qimachilik korxonalarida korporativ boshqaruv tashkilotning ichki boshqaruvini va boshqarmalar, direktorlar kengashi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish imkonini berib, aksiyadorlar va davlat manfaatlarini hamda ularning moliyaviy ulushlarini himoya qiladi. To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish bo'yicha taqdim yetilgan qarashlar tizimi quyidagi rasmda keltirilgan yo'nalishlarga asoslanishi maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm. To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari


To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning zarur darajasini ta'minlash va qo'llab-quvvatlashda puxta ishlab chiqilgan strategiya katta ahamiyatga ega. Fikrimizcha, to'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishning quyidagi strategiyalarini belgilab olish maqsadga muvofiq:

faoliyat, mulk va xodimlarga real xavf soladigan tahdidlarga zudlik bilan javob berish zaruratiga bog'liq strategiya, ya'ni bu holda "tahdid-qaytarish" tamoyili amal qiladi;

korxonada ichidagi va atrof-muhitdagi iqtisodiy vaziyatni maqsadli o'rganishga, xavf-xatar va tahdidlarni prognoz qilishga, oldindan aniqlashga yo'naltirilgan strategiya;

yetkazilgan zararni bartaraf yetishga qaratilgan xavfsizlik strategiyasi. Shularga asosan to'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish strategiyasida quyida keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadga muvofiq (3-rasm).

To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismlari — bu iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy, texnik, yekologik va xodimlardir. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan konseptual modelning o'zida amaliy tavsiyalar, yondashuvlar va chora-tadbirlar majmuini jamlagan mamlakat to'qimachilik sanoatining barqaror strategik rivojlanishiga yerishish mexanizmi va asoslangan strategiya talab yetiladi. Fikrimizcha, to'qimachilik sanoatining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi strategiyalar ishlab chiqilishi lozim:



3-rasm. To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish strategiyasi vazifalari

marketing strategiyasi — o'z xizmatlarini takomillashtirish;

tarmoq aktivlarining ishlab chiqarish hajmlarining o'sishiga, shuningdek, bozor ulushini saqlab qolish va kengaytirishga muvofiqligini ta'minlaydigan mudofaa innovatsion strategiyasi;

funksional strategiya (ishlab chiqarish hajmining sifat jihatidan o'sishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish tizimini texnik qayta jihozlash).

Funksional strategiyani amalga oshirish uchun texnologik asbob-uskunalarini yangilash, mavjud asbob-uskunalar va mexanizmlarni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy yetgan holda asosiy fondlarni rekonstruksiya qilish orqali texnik bazani har tomonlama yangilash zarur.



To'qimachilik sanoatining innovatsion faolligi uning strategik istiqbolini shakllantirish shartlaridan biri bo'lib, bozordagi raqobat mavqei tufayli boshqa korxonalariga nisbatan real yuqori daromad olish imkoniyatini beradi.

To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish bo'yicha yangi sharoitlarda barcha faoliyat sohalarida butunlay yangi texnologiyalardan foydalanish talab yetiladi. O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan qarorlarning samarali ijrosini ta'minlash uchun murakkab qaror qabul qilish jarayonining konseptual modelini yaratish taklif yetiladi. Bu model yesa muayyan optimallashtiruvchi shart-sharoitlarni ro'yobga chiqarish, xususan tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarini, resurslar taqsimotini maqbullashtirish va shu kabilarni uchun zarur turli yondashuvlarni ko'rib chiqishni nazarda tutishi lozim.

Taklif yetilgan model — tarmoq raqobatbardoshligini boshqarish tartib-qoidalarini, shu jumladan maqsadlarni belgilash, maqsadli dasturlarni shakllantirish, ushbu dasturlarni amalga oshirish uchun resurslarga bo'lgan yehtiyojni, resurslarni ishlab chiqarish dasturlarini hisoblash va ushbu dasturlarni obyektarga muvofiq rejalashtirish kabilarni imitatsiyalash imkonini beradigan murakkab obyektlarni qismlarga bo'lish (ajratish) va birlashtirish (tuzish) sxemasidir.

To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish bo'yicha konseptual model 4-rasmda ko'rsatilgan. To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish-moliyaviy salohiyati, xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tartibga solish mexanizmidan foydalanish, milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati, davlat siyosati va boshqa ko'plab omillar bilan bog'liq.

To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi uning tegishli rivojlanish darajasini yaratish bo'lib, u barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida to'qimachilik mahsulotiga bo'lgan yehtiyojlarini qondira olishi, ya'ni ortda qolayotgan infratuzilmadan iqtisodiyot talablariga mos rivojlangan infratuzilmaga o'ta tez o'tishni ta'minlashi lozim.

Taklif yetilayotgan yondashuvlar globallashtirish sharoitida to'qimachilik sanoatini faoliyatini diversifikatsiya qilishning turli yondashuvlaridan foydalangan holda insorsing (vertikal) va outsorsing (gorizontal) integratsiya asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bu uning raqobat ustunliklarini bosqichma-bosqich oshirilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishning konseptual modeli ayrim yo'nalishlarni amalga oshirishga qaratilgan umumiy yondashuvdan farq qiladi. Bundan tashqari, texnologik omillar o'rniga integratsiyaning iqtisodiy motivlari – tegishli biznes-tuzilmalarning manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb yetadi.

Ushbu sxemadan ma'lumki, to'qimachilik tarmog'ini bozor omillari asosida rivojlantirishda foydalanish uning barqaror va har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

Bunda quyidagi omillar yordam beradi:

1. Insorsing integratsiyasini faollashtirish, u ishlab chiqarish bozor infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi to'qimachilik tarmog'ining barcha asosiy quyi tizimlari mutanosib rivojlanishini ta'minlab, rejali ta'mirlash xarajatlarini kamaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi. O'z zavod infratuzilmasini rivojlantirib, yangi ish o'rinlarini yaratishga, yangi texnologiyalarni joriy yetishga, sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining malakasini oshirishga, mehnat unumdorligini ko'tarishga, yangi qo'shimcha qiymat yaratishga, xo'jalik faoliyatidagi noaniqlik darajasini pasaytirishga va innovatsiyalarning keng tarqalishiga yordam beradi.

2. Outsorsing integratsiyasining afzalliklarini amalga oshirish tashuv xizmatlari bozorini kengaytiradi, ishlab chiqarish xarajatlari kamaytiradi, bu yesa pirovardida yanada yuqori samaraga yerishishni ta'minlaydi.

3. Strategik diversifikatsiyani kengaytirish raqobatbardoshlikning innovatsion bosqichiga jadal o'tishni, qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini yaratishni, investitsiya tavakkalchiligini kamaytirishni kafolatlaydi va h.k.

4. Globallashtirish sharoitida jahon bozoriga integratsiyalashuv to'qimachilik korxonalari strategik raqobatbardoshligining oshirishini ta'minlab, unga tashqi bozorlarda davlat tomonidan himoyalash va qo'llab-quvvatlashni talab qiluvchi "geosiyosat obyekti" maqomidan "geosiyosat subyekti" maqomiga o'tish, hamda nafaqat o'z mas'uliyati doirasida, balki chet yelda ham yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.


To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishning konseptual modeli quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiq:

o'zaro bog'liqlik, adekvatlik, maqsadni belgilash;

progressiv motivatsiya;

ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik mezonlariga asoslangan istiqbollilik va natijaviylik;

qabul qilingan qarorlar va ularning bajarilishi uchun javobgarlik.



5-rasm. To'qimachilik sanoatining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishning konseptual modeli

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, to'qimachilik sanoatini rivojlantirish konsepsiyasida keltirilgan uslubiyotlar va undan kelib chiquvchi xulosa hamda tavsiyalar to'qimachilik tarmog'ini rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatdagi strategiyalarini ishlab chiqish hamda tarmoqni modernizatsiya qilish, biznes hamkorlari bilan muvofiqlashuv va integratsiyalashuv jarayoni bo'yicha ishlarni samarali olib borish, mijozlarga sifatli mahsulotlar



ishlashb chiqish va to'qimachilik sanoati raqobatbardoshligini oshirish, shu bilan birgalikda to'qimachilik sanoati samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlari. <https://uzts.uz/en/to-investors/investment-potential>
2. O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/20222026\\_yillarga\\_mujallangan\\_yangi\\_uzbekistonning\\_taraqqiet\\_strategiyasi\\_tasdiqlandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga_mujallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi)
4. Guskova N. D., Krakovskaya I. N., Slushkina Y. Y. Investitsiyalarni boshqarish. M.: Knorus, 2016 yil. 438 b.
5. Valinurova L. C., Kazakova O. B. Investitsiya. M.: Volters Kluver, 2010 yil. 448 b.
6. Katasonov V. Y. iqtisodiyotning investitsiya salohiyati: shakllantirish va foydalanish mexanizmlari. M.: Ankil, 2005 Yil. 328 b.
7. Tumusov F. S. mintaqaning investitsiya salohiyati: nazariya, muammolar, amaliyot. M.: Iqtisodiyot, 1999. 272 b.
8. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya». 303 b.
9. . "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-71-son, 01.05.2024-y.) <https://buxgalter.uz/uz/doc?id=751194>.
10. Madraximova G.R Improving The Use of Investment in Improving The Efficiency of Light Industry Enterprises in Uzbekistan. // International Journal of Research in Management & Business Studies ( IJRMBS 2019) ISSN:2348-6503. Volume 6, Issue 2 (April-June 2019). Impact Factor (5) GIF – 0.70. 32-35-p. <http://ijrmbs.com/vol6issue2/madraximova.pdf>
11. Madraximova G.R. Mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning o'rni, ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari. // Biznes-Ekspert. – Toshkent, 2020. 2-son. 104-109-b. (08.00.00 №3).
12. Madraximova G.R Analysis of the current status of the textile industry in the economy of Uzbekistan. // Economics and Innovative Technologies. Vol. 2020, No. 1, January-February, 1/2020 (08.00.00; №10). 1-9-p. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2020/i>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)